



## Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-aprel holatiga, faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 21,5 mingtani tashkil etdi.

#### Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi<sup>1</sup>




<sup>1</sup> Adliya vazirligi taqdim etgan rasmiy ma'lumotlar asosida tayyorlangan



### Shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025-yil 1-aprel holatiga, birlik	2026-yil 1-aprel holatiga, birlik
Angor tumani	1 126	1 100
Bandixon tumani	478	546
Boysun tumani	761	732
Denov tumani	2 364	2 405
Jarqo'rg'on tumani	1 523	1 600
Qumqo'rg'on tumani	1 276	1 340
Qiziriq tumani	792	927
Muzrabot tumani	806	841
Oltinsoy tumani	873	1 040
Sariosiyo tumani	1 027	1 082
Termiz tumani	1 470	1 499
Uzun tumani	900	973
Sherobod tumani	1 421	1 559
Sho'rchi tumani	1 309	1 326
Termiz sh.	3 649	4 531

### Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




## II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2026-yilning yanvar-aprelida 1 208 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026-yilning yanvar-aprelida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 498 ta, sanoatda 134 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 206 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 100 tani tashkil etilgan.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni






## Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025-yil yanvar-mart oylarida, birlik	2026-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Angor tumani	61	46
Bandixon tumani	36	31
Boysun tumani	20	23
Denov tumani	104	156
Jarqo'rg'on tumani	95	76
Qumqo'rg'on tumani	67	64
Qiziriq tumani	56	70
Muzrabot tumani	37	42
Oltinsoy tumani	60	107
Sariosiyo tumani	43	47
Termiz tumani	95	90
Uzun tumani	23	57
Sherobod tumani	56	104
Sho'rchi tumani	48	60
Termiz sh.	313	235

### III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 72,9 % ni tashkil qilib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan 0,3 punktga kamaygan.

#### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 590,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 68,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bandixon tumani (100,0 %), Uzun tumani (100,0 %), Oltinsoy tumani (100,0 %), Sherobod tumani (97,8 %), Boysun tumani (97,7 %) va Muzrabot tumani (97,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2 892,7 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 90,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 106,6 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Boysun (99,2 %), Denov (98,0 %), Termiz (96,7 %) va Bandixon (96,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 4 283,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 62,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 113,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rchi (99,2 %), Uzun (98,4 %), Qumqo'rg'on (96,6 %) va Denov (96,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 5 026,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 96,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 107,0 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Qiziriq (98,2 %), Jarqo'rg'on (98,1 %), Sho'rchi (98,1 %), Muzrabot (98,0 %) va Sariosiyo (98,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 7 844,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 96,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 123,8 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Boysun (99,6 %), Qiziriq (99,5 %), Muzrabot (99,3 %) va Sariosiyo (99,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 7 206,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 74,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 113,9 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Bandixon (83,3 %), Qiziriq (81,6 %), Muzrabot (81,5 %), Oltinsoy (79,4 %) va Uzun (76,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 77,4 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 61,2 % ini tashkil etdi.

2026-yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Bandixon tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida - 100,0 %, Sariosiyo tumanida - 100,0 %, Uzun tumanida - 100,0 % va Muzrabot tumanida - 100,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026-yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 67,1 million AQSH dollarini yoki jami importning 59,7 % ini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Boysun tumanida - 100,0 %, Muzrabot tumanida - 100,0 %, Qumqo'rg'on tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida - 100,0 %, Uzun tumanida - 100,0 % va Sherobod tumanida - 100,0 % ni tashkil etdi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



#### IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

##### Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026-yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,4 % ni tashkil etdi. 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,4 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,9 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,9 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,2,% ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,6 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,3 % ni tashkil qildi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




### V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyat natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2022-yilning yanvar-martida 30,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-martida esa 66,5 % ga yetgan yoki 2022-yilning yanvar-martida nisbatan 36,0 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2022-yilning yanvar-martida 65,0 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-martida 29,1 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2022-yilning yanvar-martida 4,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 4,4 % ga yetgan.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




#### Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2022-yilning yanvar-martida 52,3 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-martida 58,2 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalar ulushi 2022-yilning yanvar-martida 45,8 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-martida 40,9 % yoki 4,9 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2022-yilning yanvar-martida 1,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 0,9 % ni tashkil qildi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




## Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026-yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatda - 70,7 % ni, qurilishda - 70,5 % ni va sanoatda - 68,8 % ni va tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagida - 34,6 %, savdoda - 32,7 % ni va sanoatda - 27,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagida - 6,6 %, xizmatda - 4,5 % ni, qurilishda - 4,0 % ni va sanoatda - 4,0 % ni tashkil etdi.



## Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





## VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Tadbirkorlik subyektlari  
kuzatuvlari bo'limi

**Ijrochi:**

A. Shoberdiyev  
55 451-80-00 (1)

**Manzil:**

